

## USMON AZIM IJODIDA TABIAT MAVZUSI VA UNING MAJOZIYLIGI

**Boboxo'jayeva Laziza Axtamovna,**

Buxoro davlat universiteti talabasi

E-mail: [bboxojaevalaziza@gmail.com](mailto:boboxojaevalaziza@gmail.com)

**Annotatsiya:** Xalqimizda shunday ulug‘ va donishmand, ko‘pni ko‘rgan insonlar borki, ular insonlar qalbiga o‘zlarining ijodlari, ko‘ngildan chiqqan she’rlari, hayotiy asarlari bilan kirib borishgan. Usmon Azim o‘zbek adabiyotining ana shunday buyuk ijodkorlaridan biridir. Adibning ijodi ham o‘tmish, ham zamon bilan hamnafasdir. Uning she’rlari qalblarga oson kirib boradi. Ijodining mavzusi keng ko‘lamlidir. She’rlarida inson, insoniylik tuyg‘ulari, jamiyat, Vatan, tabiat, mehr-muhabbat, tarixiy mavzularni yetakchi qilib olgan shoir soda va xalqona tilda yozadi. Ushbu maqolada shoirning tabiat mavzusiga aloqador ayrim she’rlari va ulardagi majoziy ma’noda qo‘llangan birikmalar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** she’riyat, tabiat, majoziylik, maysa, daraxt, kuz, yomg‘ir, hayotsevarlik.

**Annotation:** There are great wise people in our nation who have seen a lot, who have penetrated the hearts of people with their creativity, heartfelt poems, and works of life. Usman Azim is one of such great creators of Uzbek literature. The work of the writer is in tune with both the past and the present. His poems reach hearts easily. The subject of his work is wide-ranging. In his poems, the poet writes in simple and vernacular language, focusing on human, human feelings, society, Motherland, nature, love, and historical themes. This article analyzes some of the poet’s poems related to nature and the metaphorical combinations used in them.

**Key words:** poetry, nature, metaphor, lawn, tree, rain, love of life.

She'riyat insonning o'z-o'zi bilan, odamlar bilan, tabiat bilan, Xudo bilan ruhoniy bir aloqasidir. Bu aloqa-munosabatga qachon ehtiyoj tug'iladi deb o'ylaysiz? Odamzod bu yorug‘ olamga kelganida dunyoning pok tasviri qalbiga muxrlangan bo'ladi – ota-on, Vatan, do'st-qadrondan tortib Yaratganga, mehr-muhabbat,adolat, iymon va e'tiqodgacha. Inson yuzma-yuz kelgan hayot ana shunday ta'riflangan kabi go'zal bo'lsa, qalbi cheksiz quvonchga to'lib zavqlanadi. Aksincha bo'lsa, ko'ngli iztirob chekadi. Shu onlarda ilohiy bir aloqa va suhbatga ehtiyoj tug'iladi. Qalbidagi so'zlarni o'zgacha bir uslubda satrlarga ko'chiradi. shu orqali nazm dunyoga keladi.

Nazm yaratishda aksariyat shoirlar she'rning vazni, qofiyasi va shakliga katta ahamiyat qaratishadi. Qoidalar bo'yicha ham shunday. Ammo o'ziga xos ijodkor – Usmon Azim she'riyatida shakl va qoidalarga qaraganda, ma'nolar va ijodkorga xos erkinlik holatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni shoirning o'z uslub va mahorati bor. She'riyat uning uchun Yaratgan tomonidan ato etilgan ne'mat. Ko'ngilga kelganini yozmaslik esa – mumkin emas: "...Axir bu she'mni yozmasdan, Xudoning oldiga qanday boraman? Nima deyman Parvardigorga? Nima deyman?"

Ta'kidlab o'tganimizdek, shoir ijodining mavzu ko'lami keng. Ayniqsa, tabiat go'zalligi, unga oshnolik ruhidagi she'rlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir tabiat hodisalari va tabiatdagi mavjud narsalarni keltirish orqali hayotda bo'ladigan voqealarga shular asosida yondashadi, o'zining munosabatini bildiradi. Tabiatga munosabatini to'g'ridan-to'g'ri ifoda etibgina qolmay, majoziy tarzda misollar keltiradi. Majoz, allegoriya – adabiy-badiiy usul yoki obrazlilik turi; mavhum tushuncha yoki mulohazani aniq bir obraz vositasida ifoda etish. Majozda 2 tushuncha orasidagi yaqinlikka asoslanib, yangi shartli ifoda yaratiladi. Ma'naviy qadriyatlar (haqiqat, muhabbat, vijdon, imon kabi)ni anglatuvchi umumiy tushunchalar bilan birga ma'lum tipik hodisalar, xarakterlar, mifologik personajlar, hatto aniq shaxslar ham Majoz o'rnida kelishi mumkin. Majozning obrazli-predmetli va ma'noli kabi ikki tomoni mavjud bo'lib, ma'noli tomon birlamchi, obrazli-predmetlisi ikkilamchidir. Chunki obrazda hamisha oldindan ma'lum bo'lgan fikr qayd

etiladi. Shu tufayli majoziy obraz, oddiy badiiy obrazdan farqli ravishda, maxsus sharhni talab qiladi.

*“Maysaning boshiga egilaman jim –  
Mehr-u muhabbatda to ‘liqadi dil.  
Nima demoqchiman? Bilmayman o ‘zim.  
Faqat takrorlayman: – Singiljon, singlim.*

Ko‘rinib turibdiki, shoir maysani “singlim” deya atamoqda. Yoki bo‘lmasa maysani ko‘rganda singlisi ko‘z oldiga kelmoqda. Bunda majoziylik ham bor: chunki maysa nozik, e’tiborga muhtoj o‘simplikdir. Oilada singillar ham shunday. Shoir mehr-muhabbat istab singlining – maysaning oldiga kelganini ta’kidlaydi. Shunchaki, dunyo tashvishlaridan charchab, taskin izlab maysaning oldiga keladi.

*Daraxtning qoshida qotaman ziyod –  
So ‘z topishni arang etaman udda.  
– Mevangu bargingda limmo-lim hayot –  
Bunchalar mukammal bo ‘lmasang, uka.*

Endi esa shoir daraxtgta “uka” deya murojaat qilyapti. Hayot sinovlarida toblangan kishining irodasi baquvvat, sabr-bardoshli bo‘ladi, daraxt kabi ildizi mustahkam bo‘ladi. Shoir maysaning oldiga taskin izlab kelgan bo‘lsa, daraxtning oldiga najot tilab keladi. Daraxtda hayotning barcha darg‘alari mujassamdir.

*Dunyo xafa qilsa, maysaga aytgum,  
Daraxtgta suyangum yiqilsam magar.*

Kishi boshiga og‘ir vaziyatlar tushganda, avvalo, oiladan panoh topadi. Shoir Usmon Azim ham tabiatni o‘z oilasi sifatida ko‘rib, unga talpinadi. Tabiat ijodkorga ilhom beradi, shu bilan birga dalda ham beradi. Ya’ni “dunyo tashvishlaridan aziyat cheksam singlim bilan dardlashaman, agar hayot sinovlariga bardosh berolmasam, ukamga suyanaman!”, deydi shoir.

*Masalan, maysani egachi bilsang,  
Daraxtni – birodar... Olam – guliston!*

Tabiatdagi har bir mavjudot, o'simlikka ana shunday ko'z bilan qarasak, yashash yanada yaxshi bo'ladi. Bu narsalarni tushunish uchun tabiat himoyachisi, biolog, zoolog, o'qituvchi yoki tabiatdan ilhom oladigan shoir-yozuvchi bo'lish shartmas, shunchaki oldimizdagi har qanday narsaning qadrini bilish – odamiylikdir.

Shoir she'rlari bilan yaqindan tanishib chiqar ekanmiz, aksariyat she'rlari kuz fasli tasviriga bag'ishlanganligini sezamiz. Chindan ham, ushbu xazon fasli shoirning sevimli fasli: "Demak uch oydan so'ng keladi bahor, So'ngra yoz... Undan so 'ng sevimli kuzim!.." Ayrim insonlar kuz faslida ma'yuslik, horg'inlik, g'am-g'ussa, tushkunlikni his etsalar, Usmon Azim bu fasldan zavqlanib, ilhom ilgan. Ayniqsa, yomg'ir, shamol, bulutlar, shabboda – eng ko'p uchraydigan obrazlar. Yomg'ir shunchaki tabiat hodisasi emas, balki zamin uchun to'kin-sochinlik, baraka timsoli: "*Baraka yog'adi! Yog'adi najot! Qancha tasodifdan hatlab ko'karar, Beminnat xizmatkor – mehnatkash hayot*".

Usmon Azimning "Yomg'irli kechada..." deb boshlanuvchi she'rda lirik qahramon qalbida jo'sh urgan iliq tuyg'ular namoyon bo'ladi. Yomg'irli kun yoki tun shoirning qalbini junbishga keltiruvchi tabiat mo'jizalaridan biri. Lirik qahramon sevimli faslining sevimli hodisasi bo'lmish yomg'irli kechada qanot bog'lab ko'kka parvoz qilgandek bo'ladi. Shabadalar uning yuziga urilib tetiklashtiradi va hayotga muhabbat tuyg'ularini yanada oshiradi. Bu hodisaning guvohi bo'lgan yulduzlar lirik qahramonga havas ila boqib, kumush nurlarini boshi uzra sochishadi. Bu ular tomonidan lirik qahramonga ko'rsatilgan mehr-muhabbatning belgisi. She'rda hayotsevarlik tuyg'ulari ham namoyon bo'ladi:

*Yomg'irli kechada falakka uchdim,*

*Shamollar yuzimga yopishdi – ivib.*

*Yulduzlar armonli shivirga tushdi:*

– *Yomg'irning hidi-ku...*

– *Yomg'irning hidi!..*

Shoir yaratgan lirik qahramon o'zini olam ichidagi bir olam deb biladi. Shu bilan birga hamisha ziddiyatli kechinmalar qurshovida yashaydi. Shoir ayni kechinmani

ifodalash shakllarini qidiradi. Izlanish uni tashbeh, majoz va obrazlar sari yetaklaydi. Shu o'rinda shoirning "Bir daraxtning so'nggi qo'shig'i" she'rini tahlil qilsak:

*Men shunday yaraldim: Sumbatim egri,  
Gullarim qalblarga solmas hayajon.  
Mevamga hech kimning tushmagan mehri,  
Bargim chumoliga bo'lmas soyabon.  
Alvido! Men endi maqsadga yetdim  
Bog'doshlar, so'ng yo'lga kuzating, qani...  
Men o'tin bo'lgani uzlatga ketdim,  
Men ketdim, do'stlarim, olov bo'lgani!*

Ushbu she'rda shoir yaratgan daraxt obrazi majoziy ma'noga ega. Bu daraxtning sumbati egri, gullari hech kimni hayajonlantirmay, mevalariga hech kimning mehri tushmagan, barglari hatto chumoliga ham soya bermagan bo'lsa-da, bular uning xohishi bilan emas, balki u yashagan muhitning illat va kirdikorlari bilan bog'liq ekani anglashiladi. Hayoti mobaynida maqsadiga erisholmagan daraxtning hayot shomida favqulodda holatga tushishi va bu holat garchi uni yo'qlik qa'riga, adamga olib ketsada, bu ketishdan kimgadir nafi tegishi nazarda tutiladi. Uning yonishi, olov bo'lishi zamirida shunday ma'no mujassamlashgan. Darhaqiqat shoir ijodidagi o'ziga xoslik kutilmagan tasvirlar yoxud obrazlar yaratish mahorati bilan namoyon bo'lar ekan, bu o'z o'rnida shoir tomonidan yuksak mahorat bilan til va tasvirni uslubiy yuksalishga xizmat qildiradi.

Hayot ziddiyatlaridan, uning qora ranglaridan toliqqan shoir dunyoning bag'ritoshligidan, insonning esa ba'zan imkonsizligidan kuyadi. Va bu iztirob yaxlit bir kechinmaga aylanib, she'r bag'ridan o'tadi. Gegel lirik kechinmaga xos bo'lgan bu xususiyatni Gyote she'riyati misolida juda o'rinli ko'rsatib bergan. «...lirik shoir, - degan u, - o'z qalbi va ongida shoirona shakllangan hamma narsani qo'shiqda ifodalashga ehtiyoj sezadi. Shu munosabat bilan boy hayotning turfa jarayonlarida hamisha shoir bo'lib qolgan Gyoteni eslamoq joizdir. Bu jihatdan u eng mashhur insonlar safidan o'rin oladi. Qiziqish doirasi shu qadar xilma-xil va benihoya keng

bo‘lgan kishi kam uchraydi, ammo shunga qaramasdan, u doimo ichkin hayot kechiradi va uning qalbiga to‘kingan hamma narsa she’riy obrazlar shaklini oladi». Usmon Azim lirkasida ham ana shunday iztirobli g‘alayonlarning ifodasini ko‘ramiz. Tanqidchi Ibrohim Haqqulov ham shoir she’riyatiga bag‘ishlangan bir maqolasida ruhning she’riyatdagi o‘rni haqida to‘xtalar ekan, uning ijodida ruhning erkinligi va latifligi miqyosining kengligini alohida uqtiradi. Tanqidchi nazaricha, ruh, insondagi idrok qiluvchi va biluvchi latiflikdir. I.Haqqulov ruhning erkinligi haqida quyidagi fikrni bayon etadi: «Ruh erkinligi insonni davru zamonning har qanday xavf-xatarlaridan muhofaza eta oladi. Ruhan va qalban ozod shaxs – yengish qobiliyati shakllangan shaxs».

Biz shoir ijodining birgina jihat, lirk kechinmaning obrazli ifodasi til va uslubiga hamda majoziy qarashlarga asoslangan ayrim she’rlariga nazar tashladik. Usmon Azim faqatgina kuz tasviri bilan cheklanib qolmay, barcha fasllar nomi bilan balladalar ham yaratgan. Uning boshqa nasriy asarlarida ham tabiat tasviri majoziy ko‘rinishda bo‘lsa-da, yoritilgan. Zotan, uning ijodidagi xalqona ohang, baxshiyona uslub, yuksak badiiy tafakkur tamoyillari shoir ijodining o‘ziga xos qirralarini yanada yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Адабий турлар ва жанрлар (Тарихи ва назариясига оид) III жилдлик. 2-жилд.  
Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 246 б.
2. Усмон Азим "Сайланма" (шеърлар). Т.: Шарқ, 1995.- 282 б.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.–Т.: Ўзбекистон, 2001. – 560 б.
4. Усмон Азим “Бир парча осмон”. Т.: Factor Press, 2022. – 384 б.
5. Naim Karimov “Nekbin ruh, hayotsevar g‘oya” maqolasi.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Allegoriya>
6. <https://zarnews.uz/uz/post/usmon-azim-bir-tosh-tushsa-tushibdi-togdek-boshimga-manim>